

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Yusupov S.Yu. va boshqalar. Qorako'lchilikda naslchilik ishini yuritish va qo'zilar baholash (bonitirovka qilish) bo'yicha qo'llanma. Toshkent 2015 y.
2. Gaziev A., Yusupov S.Yu., Fazilov U.T. Qora rangli qorako'l qo'ylari seleksiyasi samaradorligini oshirish usullari. //Uslubiy ko'rsatmalar. Samarqand, 2001, 9 b.
3. Газиев А., Юсупов С.Ю., Фазилов У.Т. Селекционные основы повышения эффективности селекции черных каракулских овец. //«Чўл-яйлов чорвачилиги ва озука этиштириш муаммолари» ҚЧЕИТИнинг 85 йиллигига бағишланган халқаро ил.-амал. конф. материаллари. Самарқанд. 2015. 51-55.
4. Mamatov B.S., Gaziev A. Sur qorako'l qo'zilar jun-tola uzunligining ota – onalar gul tipi bilan bog'liqligi. "Cho'l-yaylov chorvachiligini rivojlantirish va cho'llanishning oldini olishning ilmiy amaliy asoslari" mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Samarqand, 2019. 43-44 bet.

UO'T:636.32

Qo'ychilikni hozirgi holati va uni rivojlantirish istiqbollari

S.Boshmonov., D.T.Rizayeva., M.Q.Sulaymonova
Samarqand davlat veterinariya medisinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada qo'ychilikning halq xo'jaligidagi ahamiyati, hozirgi holati, rivojlantirish istiqbollari, dunyo miqiyosida va mamlakatimizdagi qo'ylarning bosh soni, shuningdek, qo'ychilikda mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini yaxshilash bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar taxlil qilingan, tegishli xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Chorvachilik, qo'ychilik, otlar bosh soni, oziq-ovqat mahsulotlari, mahsuldorlik, samaradorlik, qo'y zotlari, jaydari, hisor, qorako'l, xom ashyo, go'sht, jun, teri.

Abstract: This article discusses the importance of sheep breeding in the national economy, its current state, development prospects, the number of sheep in the world and in our country, as well as the implementation of increasing production in sheep breeding and improving quality. manufactured products, analyzed the work done, and gave appropriate conclusions and recommendations.

Key words: Livestock breeding, sheep breeding, horse population, food products, productivity, productivity, sheep breeds, Jaidari, Hisar, Karakol, raw materials, meat, wool, leather.

Kirish. Qo'ychilik chorvachilikning eng qadimiy va muhim tarmoqlaridan biri hisoblanib, asrlar mobaynida kishilik jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutgan. Aholi uchun oziq-ovqat va daromad olishning muhim manbai hisoblangan.

Qo'ylar chorva hayvonlari orasida eng ko'p sonlisi bo'lib, yer yuzining barcha mintaqalarida tarqalganligi bilan ajralib turadi.

Qo'ychilik aholini sifatli oziq-ovqat, jumladan go'sht va go'sht mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, sanoatni esa sifatli xom-ashyo hisoblanadigan jun, po'stinbop, mo'ynabop va barra teri bilan ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Keyingi yillarda yer yuzida aholi sonining keskin ko'payishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli qo'ychilik sohasini rivojlantirish, qo'ylar bosh sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

E'tibor beradigan bo'lsak keyingi yillarda mamlakatimizda sohani rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezideti tomonidan 2019 yil 16 martda qabul qilingan "Chorvachilik tarmog'ini yanada rivojlantirish va qo'llab quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4243-sonli, 2019 yil 28 martdagi "O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va Chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4254-sonli, 2019 yil 20 maydagi "Yaylov to'g'risida"gi Q-538-sonli qonunlari, 2022 yil 8 fevraldagi O'zbekiston Respublikasida Chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida PQ-120-son qarorlari bunga yaqqol misol bo'ladi. Bu qonun va qarorlar chorva mollari, shu jumladan respublikamizda qo'ylar bosh sonini ko'paytirish va mahsuldorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, sohani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo mamlakatlarida va malakatimizdagi mavjud qo'ylar bosh soni dinamikasiga e'tibor beradigan bo'lsak, keyingi yillarda ijobiy o'zgarishlarga guvoh bo'lishimiz mumkin.

BMT ning Oziq ovqat va qishloq xo'jligi tashkiloti (ing. FAO-Food and Agricultural Organization.) ning ma'lumotlariga ko'ra dunyo miyyosida qo'ylar bosh soni 2010 йилда 1076400000 бошни, 2015 йилда 1176900000 2018 yilda 1209500000 boshni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2018 yilda 2015 yilga nisbatan 2,77% ga, 2010 yilga nisbatan esa 12,36 % ga oshganligini kuzatishimiz mumkin.

1-jadval

**Qo'ychilik rivojlangan mamlakatlardagi qo'ylar bosh soni, mln bosh
(FAO ma'lumotlari asosida)**

Mamlakatlar	Yillar		
	2010	2015	2018
Avstraliya	68,1	70,9	70,1
Xitoy	134,0	158,5	164,1
Yangi Zelandiya	32,6	29,1	27,3
Hindiston	67,7	62,2	61,7
Eron	47,6	44,7	39,7
Buyuk britaniya	31,1	33,3	33,8
Turkiya	21,8	31,1	33,7
JAR	24,5	23,9	22,5
Pokiston	27,7	29,4	30,5
Rossiya	19,8	22,6	22,3
Ukraina	1,20	0,79	0,73
Qozog'iston	14,66	15,69	16,42
Qirg'iziston	4,09	5,06	5,36
Ozarbayjon	7,87	8,02	7,68
Tojikiston	2,62	3,36	3,67
O'zbekiston	12,08	15,20	17,77
Turkmaniston	13,60	14,00	14,07

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari orasida Xitoy, Avstraliya, Hindiston, Nigeriya, Sudan, Buyuk Britaniya, Eron, Efiopiya, Chad, Turkiya kabi mamlakatlar qo'ylar bosh soni bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Sohada ishlab chiqariladigan mahsulotning 4/3 qismi shu mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Qo'ychilik iqtisodiy jihatdan chorvachilikning boshqa tarmoqlariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Yil davomida 11 oygacha yaylovlarda saqlash imkoniyatining mavjudligi, mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflanadigan xarajatlarni tejash imkonini beradi. Ayni paytda mamlakatimizda 24 mln boshga yaqin qo'y va echkilar mavjud bo'lib, ishlab chiqarilayotgan

2-jadval. O'zbekistondagi qo'ylar bosh soni haqida ma'lumot.

Hududlar	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Res.	15340,9	16189	17128,8	17717,6	18438,9	19118,8	19697,9	20640,9	21580,5	21906,9	22458,8	22970,3	23602,5
Qoraqalpog'iston Res.	764,3	802,7	838,6	873,3	876,9	901,5	939,7	1031,8	1089,7	1115,1	1142,6	1178,5	1213,9
Andijon viloyati	890,5	970,9	1176,1	1188	1213,6	1224	1290,5	1365,1	1434,9	1437,2	1450,6	1491,1	1526,6
Buxoro viloyati	1563,2	1631,9	1703	1760,6	1825,1	1936,7	2043,4	2068,2	2115,9	2189,1	2239,8	2304	2416,5
Jizzax viloyati	1363,8	1440,4	1538	1552	1659,7	1727,4	1823	2006,9	2118,3	2155,7	2216,3	2255,2	2320,7
Qashqadaryo viloyati	3233,5	3511,1	3819,8	3954,4	4116,5	4281,5	4412,6	4518,4	4599,2	4614,2	4727,1	4784	4898,6
Navoiy viloyati	1745,8	1796,5	1706,8	1731,8	1782,6	1869	1834	1875	2091,8	2151,4	2254,8	2321,3	2378,8
Namangan viloyati	614,2	628	647,7	661,6	679,2	696	702,4	716	765,1	767,6	782,6	803,1	824,8
Samarqand viloyati	1647,6	1722	1827	1940,9	2074,2	2150,7	2205,8	2282,8	2397,1	2434,2	2488,3	2546,3	2607,4
Surxondaryo viloyati	1701	1768,6	1847,4	1926,2	1978,9	2024,1	2089,7	2234,1	2316,9	2361,4	2420,9	2479,2	2536,1
Sirdaryo viloyati	191,8	207,6	224,2	244,1	258,9	278	293,5	320	347,6	347,7	348,9	362,8	378,5
Toshkent viloyati	645	684,2	723,9	758,7	786	820	836,2	968,2	1017,6	1033,2	1061	1071,9	1086,3
Farg'ona viloyati	624,8	665,5	706,8	747,7	799,1	811,5	829,2	831,8	851,4	856,7	870,5	893,2	917,8
Xorazm viloyati	355,4	359,6	369,5	378,3	379,9	389,8	396	415,4	428,2	436,5	448,4	471,2	484,6
Toshkent shahri	0	0	0	0	8,3	8,6	1,9	7,2	6,8	6,9	7	8,5	11,9

3-jadval. O'zbekistonda qo'ylar bosh soni haqida ma'lumot (umumiy qo'ylar bosh soniga nisbatan % hisobida)

Hududlar	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4,98	4,96	4,9	4,93	4,76	4,72	4,77	5	5,05	5,09	5,09	5,13	5,14
Andijon viloyati	5,8	6	6,87	6,71	6,58	6,4	6,55	6,61	6,65	6,56	6,46	6,49	6,47
Buxoro viloyati	10,19	10,08	9,94	9,94	9,9	10,13	10,37	10,02	9,8	9,99	9,97	10,03	10,24
Jizzax viloyati	8,89	8,9	8,98	8,76	9	9,04	9,25	9,72	9,82	9,84	9,87	9,82	9,83
Qashqadaryo viloyati	21,08	21,69	22,3	22,32	22,33	22,39	22,4	21,89	21,31	21,06	21,05	20,83	20,75
Navoiy viloyati	11,38	11,1	9,96	9,77	9,67	9,78	9,31	9,08	9,69	9,82	10,04	10,11	10,08
Namangan viloyati	4	3,88	3,78	3,73	3,68	3,64	3,57	3,47	3,55	3,5	3,48	3,5	3,49
Samarqand viloyati	10,74	10,64	10,67	10,95	11,25	11,25	11,2	11,06	11,11	11,11	11,08	11,09	11,05
Surxondaryo viloyati	11,09	10,92	10,79	10,87	10,73	10,59	10,61	10,82	10,74	10,78	10,78	10,79	10,75
Sirdaryo viloyati	1,25	1,28	1,31	1,38	1,4	1,45	1,49	1,55	1,61	1,59	1,55	1,58	1,6
Toshkent viloyati	4,2	4,23	4,23	4,28	4,26	4,29	4,25	4,69	4,72	4,72	4,72	4,67	4,6
Farg'ona viloyati	4,07	4,11	4,13	4,22	4,33	4,24	4,21	4,03	3,95	3,91	3,88	3,89	3,89
Xorazm viloyati	2,32	2,22	2,16	2,14	2,06	2,04	2,01	2,01	1,98	1,99	2	2,05	2,05
Toshkent shahri	0	0	0	0	0,05	0,04	0,01	0,03	0,03	0,03	0,03	0,04	0,05

go'shtning asosiy qismi shu tarmoqqa to'g'ri keladi. Respublikamizda har 100 kishiga to'g'ri keladigan qo'ylar bosh soni 65 boshni tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumolariga ko'ra 2023 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra respublikamizda boqilayotgan qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 23602,5 ming boshdan oshgan. Ushbu ko'rsatkich 2023 yilda 2011 yilga nisbatan 53,85% ga oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimizda qo'ychilikni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat mavjud. Turli mulkchilik shaklidagi ixtisoslashgan xo'jaliklardagi mavjud shart-saroit, oziqa bazasi, tabiiy yaylovlar mavjud qo'ylar bosh sonini bir necha ko'paytirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdorini oshirish imkonini beradi.

Buning uchun:

-qo'ychilikda ozuqa bazasini mustahkamlash hamda ozuqa ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, ozuqabop ekinlar uchun ajratilgan yerlar va mavjud yaylovlardan samarali foydalanish, ozuqabop ekinlar urug'chiligini tizimli yo'lga qo'yish, mavjud yaylovlarda cho'llanish jarayonlarining oldini olish va ularning hosildorligini oshirish, ozuqabop ekin maydonlari miqdorini ko'paytirish, ozuqabop ekinlarning hosildorligini oshirish, ozuqalarning to'yimlilikini oshirish, zaxira sifatida jamg'ariladigan ozuqalarni asrash va saqlashni to'g'ri tashkil qilish, tabiiy hamda arzon ozuqa ishlab chiqarishni ko'paytirishni yo'lga qo'yish;

- qo'ychilikda naslchilik ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, barcha toifadagi xo'jaliklarda qo'ylarining naslini yaxshilash, sun'iy urug'lantirishni tizimli yo'lga qo'yish;

- fermer xo'jaliklari, naslchilik xo'jaliklari va ilmiy-tadqiqot institutlari o'rtasida ishlab chiqarishni ilm-fan bilan integratsiyalashtirish hamda hamkorlik ishlarini talab darajasida tashkil etish;

-qo'ylarini saqlash va parvarishlashning sifatini oshirish hisobiga mahsuldorlikni ko'paytirish, bino va inshshotlarni to'g'ri loyihalash, qo'yxonalarda zoogigiyenik meyorlar va mikroiklim ko'rsatkichlarini talab darajasida bo'lishini ta'minlash;

-infeksion va invazion kasalliklarni oldini olish va davolashni to'g'ri tashkil qilish;

-ixtisoslashgan xo'jaliklarda qo'ylar bosh sonini ko'paytirish;

-ishlab chiqarish jarayonlarini to'liq texnologik tizimga o'tkazish;

-sohaga yangi innovatsion texnologiyalarni joriy etish;

-mahsulotlari ishlab chiqarishni rag'batlantirish. Bunda soliq imtiyozlari va subsidiyalar ajratish;

-imtiyozli kreditlash tizimining joriy etish;

-qo'ychilikni rivojlantirish uchun ichki va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish;

-sohada qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish;

-qo'ychilik sohasida faoliyat yuritayotgan ishchi xodimlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab quvvatlash ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar miqdorini ko'paytirish imkonini beradi. Bu esa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ерохин А.И., Которев В.И., Ерохин С.А. Овцеводство. Воронеж 2014. 450 стр.

2. Ризаева, Д. Т., & Бахронов, О. Х. (2021). Качественные показатели шерстного покрова овец черной окраски в условиях песчаной пустыни.

3. Усманова М., Худойбердиев, Э., & Ризаева, Д. (2022). Качественные показатели шерстного покрова каракульских овец. In *Интеллектуальный потенциал молодых ученых как драйвер развития АПК* (pp. 311-313).

4. Сатторов, С. Б., Мамаризаев, Н. А., Тухтаев, О. Б., Ризаева, Д. Т., & Махмудов, М. Х. (2021). Результаты использования баранов-производителей афганской популяции в Узбекистане.

5. Сулейманова, М. К., &Ризаева, Д. Т. (2022). Молочная продуктивность овец разных генотипов. In Инновационное развитие продуктивного и непродуктивного животноводства (pp. 195-199).
6. Сулейманова, М. К., Ризаева, Д. Т., &Маматов, Д. (2022). Қўзиларни онасини сут маҳсулдорлигига кўра ўсиш ва ривожланиши. *Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali*, 751-753.
7. Suleymanova, M., Rizayeva, D., &Khuseinova, M. (2023). Genetic Testing of Sheep for Prolactin (PRL) Gene. *International journal of biological engineering and agriculture*, 2(6), 74-78.
8. www.fao.org
9. www.stat.uz